

## **Yoshlarimiz-kelajak bunyodkori**

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilib, butun ishonchimiz va asosiy suyanchimiz bo'lgan yoshlar taqdiri va kelajagi doimiy davlatimiz e'tiborida bo'lib kelmoqda. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti Kasbiy ta'lrim:



XREA yo'nalishi 4-kurs 04 guruh talabasi Mirazamov Dilmurod Atham o'g'li Qozog'iston Respublikasi Nursulton shahrida MDH davlatlari o'ttasida o'tkazilgan "Yilning eng yaxshi yosh olimi- 2021" Xalqaro tanlovida "Kasbiy ta'lrim va maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" yo'nalishida birinchi o'rinni olib, oltin medal bilan taqdirlandi. Mirazamov Dilmurod o'qishi davomida "Professional ta'lrim va jismoniy madaniyat" kafedrasи mudiri, professor Ismailova Zuhra Karabaevna rahbarligi ostida 30 dan ortiq xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda faol ishtirok etdi.



Jonkuyar yoshlarimizdan yana biri "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinosari Orifjon Habibullaev "Bir zamin-bir maqsad" 3-onlayn forum doirasida tashkil etilgan "Eng kreativ surat" nomli tanlovida faol ishtikok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizning yorqin kelajagi va xalqimizning umidi ishonchi qora ko'zlarimizga bog'liq. O'z navbatida, kelajagimiz egalari ham yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalangan holda, mukammal bilim olish va kasb-hunar egallash, shuningdek, xalqimizning orzu-istikclarini amaliy ishlar bilan ro'yobga chiqarishni o'z oldiga maqsad qilishlari lozim. Kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish aziz yoshlarni ushbu ezgu yo'lida yuksak maqsad va marralarga erish yo'lida ulkan zafalar tilab qolamiz.



**TIQXMMI matbuoti xizmati**